

5-SINF O'ZBEK TILI FANI
IV CHORAK
BSB-4

Loyiha ishi. Jamoat transportlari haqida “Lapbook” yaratish va taqdimot qilish. Mavzular:
samolyot, poyezd, metro, trolleybus, tramvay, avtobus.
(Sinf o'quvchilari 5-6 kishilik guruhga bo'linadi va qur'a tashlash yo'li bilan mavzular taqsimlanadi)

Bosqich	Topshiriq	Baholanadigan ko'nikma	Namuna	Vaqt	O'qituvchi nazorati
1	Paydo bo'lish tarixi (qayerda, qanday va birinchi haydovchi kim?)	Ma'lumotlarni to'g'ri tanlay olish va o'zbek tilida yetkazib bera olish (payt ravishlaridan o'rinli foydalanish)	Ma'lumotlarni topish, saralash		
2	Qiziqarli ma'lumotlar (mavzuga tegishli)	Predmetlar, voqeа-hodisalarga o'zbek tilida munosabat bildira oladi	Faktlarni guruh bilan topib, tahlil qilish		
3	Eskizini tayyorlash (qog'oz, bo'shagan idish, plastmassalardan berilgan transport eskizini yasash)	Predmetlar tasvirini tushunadi va o'zbek tilida tushuntira oladi	Eskiz uchun foydalanadigan detallarni guruh bilan maslahatlashib ishlash		
4	Qanday qismlardan iborat (tanlagan transporti qismlarini tasvirlash, tushuntirish)	Transport qismlarini o'zbek tilida to'g'ri yoza oladi va ayta oladi	To'plagan ma'lumotlarni guruh bilan to'g'ri izohlash		
5	Transport aholi uchun qay darajada ahamiyatli? (tanlagan transporti haqida shaxsiy fikrlar berish)	Predmetlar, voqeа-hodisalarga o'zbek tilida munosabat bildira oladi.	O'z shaxsiy fikrlarini guruhda muhokama qilib, yakuniy fikr berish		

O‘qituvchi uchun tavsiya: O‘quvchilar uchun berilgan topshiriqlarni bajarish uchun vaqtini belgilab berish tavsiya etiladi. Taqdimot jarayonini rasmga va tasvirga olish maqsadga muvofiq. (*qo‘l telefonida*)

Taqdimot ishini baholash mezonlari		
E’tibor qaratiladigan jihatni	Maksimal ball	Diskriptorlar
Dizayn	5 ball	Lepbuk dizayni yaxshi ishlangan bo‘lsa- 5 ball
Kreativlik	<u>5 ball</u>	Ishga kreativ yondashuv yuqori darajada bo‘lsa -5 ball
Mavzuni dalillar bilan keltira olishi (topshiriqda berilgan ma’lumotlar to‘lig‘icha yoritilganligi)	<u>10 ball</u>	Ma’lumotlar to‘g‘ri tanlangan, to‘liq yoritib berilgan, narsa-hodisa va voqealarga munosabat bildirgan, payt ravishlaridan o‘rinli foydalanib o‘zbek tilida yetkazib bera olgan bo‘lsa -10 ball
Savodxonligi (og‘zaki va yozma)	<u>15 ball</u>	Taqdimot xatosiz, imlo qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo‘lsa -10 ball, nutqi aniq va ravon bo‘lsa -5 ball
Jamoa bilan ishlash	<u>10 ball</u>	Vazifalar taqsimlangan, loyiha jamoaviy ishlangan bo‘lsa -10 ball
Vaqtga rioya qilinishi	<u>5ball</u>	Belgilangan vaqtga amal qilinsa- 5 ball
JAMI:	50 ball	



